
JURNALISTLAR YOSHLAR YETAKCHILARI TOMONIDAN OLIB BORILAYOTGAN ISHLAR BILAN TANISHISHDI

Bugun 2022 yil 17 iyun kuni AOKA direktori va viloyat hokimi tomonidan tasdiqlangan reja-grafikka asosan Rishton tumanida navbatdagi press-tur o'tkazildi. Mazkur tadbirda tumanimizda faoliyat yuritayotgan jurnalistlar, ijtimoiy tarmoq faollari va yoshlar yetakchilari ishtirok etishdi. Press tur qatnashchilari Rishton tumani "Bo'ston" va "Nosgar" mahalla fuqarolar yig'inlarida yoshlar yetakchisi sifatida faoliyat yuritayotgan Baxtiyor Davronov va Uyg'un Abduhamidovlar tomonidan olib borilayotgan ishlar bilan tanishishdi. So'nggi paytlarda mahalalarda yoshlar yetakchilari tomonidan keng ko'lamdagi ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, ular tomonidan mahalladagi yoshlar o'rtasida "Besh tashabbus" doirasidagi tadbirlar o'tkazib kelinmoqda. Press-tur ishtirokchilari "Bo'ston" mahallasida "Besh tashabbus" doirasidagi musobaqalar o'tkazilayotganiga guvoh bo'ldilar. Aytgancha, "Bo'ston" MFY yoshlar yetakchisi Baxtiyor Davronov boshchiligida yaqinda yakuniga yetgan futbol bo'yicha DXX kubogi musobaqasida tuman g'olibi bo'lib, viloyat bosqichiga yo'llanma olishdi. "Nosgar" MFY yoshlar yetakchisi Uyg'un Abduhamidov ham o'zi faoliyat yuritayotgan mahallada yoshlar muammolari bilan ishlash, ularning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish uchun yeng shimarib ishga kirishdi. Xususan, Nosgar MFYdagi yoshlarni bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish maqsadida yoshlar o'rtasida "Besh tashabbus olipiadasi" doirasida sportning futbol, voleybol, stol tennisi, yengil atletika, shashka, shaxmat, mushoira tanlovi, Yosh kitobxon oila tanlovi, "Yoshlar ovozi" tanlovi yuqori saviyada o'tkazildi. Nosgar MFYda Yoshlar daftariga kiritilgan 6 nafar yoshlar ijtimoiy qullab-quvvatlandi. Press-tur ishtirokchilari "Nosgar" mahallasida joylashgan "Ergash ota Sanginov" nomidagi xalq kutubxonasida ham bo'lishdi. O'z hisobidan mahalla ahli uchun kutubxona tashkil etgan inson Husanboy ota Ergashev press tur ishtirokchilariga tuman tarixi haqida so'zlab berdi. Jurnalist va blogerlar shuningdek, "Bo'ston" hamda "Nosgar" mahallasi yoshlar yetakchilari tomonidan amalga oshirishgan ishlar bilan tanishishdi.

Rishton tumani hokimligi Axborot xizmati

2022-06-17 14:31:20